



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
12-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха"	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Oloqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari	98
Umurov Sharif Rajabovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash	102
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта	106
Панжиева Назолат Норматомовна	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации	111
Тураева Дилфуза Даминовна	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	116
Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi	
Blended Learning Pedagogy in University EFL Writing Courses: Effects on Linguistic Accuracy and Learner Autonomy	120
Inomidinova Dildorxon Ikramovna	
O'smirlik davrida psixologik rivojlanishning muhim jihatlari va uning determinantlari.....	125
M. S. Usmonova	
The Relationship Between Grammar Knowledge and Writing Proficiency in EFL Learners	130
Tahirova Shaxribonu	
Особенности интерпретации юридических терминов в медиатекстах.....	139
Хамидова Нигора Тулкуновна	
Sportchilarning ijtimoiy moslashuvda murabbiy shaxsining roli	142
Akbarova Maloxatoyimposhsha Saidto'ra qizi	
Raqamli asrda yoshlarning media savodxonligi: ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda vlog yuritishning o'rni.....	146
Akramova Yulduz Farxadovna, To'rayeva Maftuna Ravshanovna	
Naqshbandiya ta'limotida psixospiritual paradigmalarining mohiyati	151
Ashurova Gulru	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining hamkorlikdagi o'quv faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari.....	154
Bekmuratov Qadirbergen Quwanishbaevich	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish.....	158
Hotamov Lochinbek Uktam o'g'li	
Improving Speaking Skills Through Authentic Videos Abstract	162
Imamaliyeva Gulnoza Ulug'bekovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (pedagogik ritorika fani misolida).....	168
Ismoilov Muhammadkarim Miraxmat o'g'li	
Boshlang'ich ta'limda kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik asoslari (2-sinf rus tili darslari misolida)	170
Jabborova Muslima Toxirovna	
Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion mexanizmlari	175
Karimova Barno Ergashevna	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	178
Mamanazar Djumayev	
Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning pedagogik-didaktik asoslari	187
Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna	
Regbi mashg'ulotlari jarayonida talabalarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning differensial metodikasi	191
Nematov Bahodirbek Baxtiyor o'g'li	
Oila muhitida siblinglararo munosabatlarda psixologik manipulyatsiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari...	195
Nishanova Zulfizar Yashin qizi	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari va tpack yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish	199
Nozimabonu Tojiboyeva	
Agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	204
O'ktamova Shohida Odilbek qizi	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklari va xavflari.....	209
Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	
Kichik tadbirkorlik subyektlarining hudud eksport salohiyatini oshirishga ta'sirining ekonometrik-statistik tadqiqi	214
Boymatova Dildora Olim qizi, Toshaliyeva Saodat Toxirovna	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga tovush yo'nalishini aniqlashtirish metodikasi.....	218
Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li	
Bolalar folklori asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	222
Jo'raboyeva Mushtariy Jamoldin qizi	
O'zbekistonda maktab ta'limida o'quvchilarning kasbiy salohiyatini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish	228
Karimova Sarvinoz Hojiqurbonovna	
Aqli zaif bolalarning so'zlashuv nutqiga qo'yiladigan talablar	233
N. S. Mirbabayeva	
Oliy ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya berish metodlari	237
Kamalov Rustam Azizovich	
Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda pedagogik mahoratini rivojlantirish xususiyatlari.....	241
Shamsiyeva Sevara Yusupovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani rivojlantirishda loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	244
Tangirqulov Elmurod Aliyarovich	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish	248
Toshtemirova Sarvinoz Obidovna	
Shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'naltirilganligi guruhviy jipslikni belgilovchi individual omil sifatida	251
Turayev Nurmuhammad Alibek Fozil o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida).....	254
G'ofurova Umida O'tkirbek qizi	
The Role of Artificial Intelligence in Creating Interactive Methods in English.....	258
Urozboyeva Mavluda Shukurlo qizi	
Bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	262
Xalikova Xurshida Abdullayevna	
Suv ekotizimlarida turlar sonining kamayishini eDNA metabarkoding orqali aniqlash va uning oziq-ovqat xavfsizligidagi ahamiyati.....	267
Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Izzatilloeva Umida Kamolovna	
Asalarilar sonining kamayishi va global ekologik xavf	272
Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Sayfulloyeva Dilnura Samandarovna	
Enhancing A2 Learners' English Speaking Skills Through Short Stories With Structured Question-and-Answer Activities.....	276
Xudoyberdiyeva G. Sh.	
Кризис интеллигента и поиск смысла жизни в русской и мировой прозе XX Века: сравнительный анализ романов "Обломов" (И. Гончаров) и "Великий гатсби" (Ф. С. Фицджеральд) ..	280
Аманова А. А., Саттарова М.	
Понятие профессиональной ориентации и ее педагогическая сущность	285
Каримова Наргиза Абдугафуровна	
Talabalarning sun'iy intellektli ta'limiy vositalarni loyihalash kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari	289
Toxirov Feruz Jamoliddinovich	



Maktab ta'lim tizimida STEAM yondashuvini joriy etishda loyiha boshqaruvining roli va samaradorligi 293 Avalboyeva Mavluda Abdumalikovna	293
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari 300 Xodjayeva Matlyuba Rustamovna	300
Biologiya darslarida interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish 304 Hayitov Abdurasul Eshdavlatovich, Anvarjonova Odinaxon Xayrullo qizi, Rahimova Fazilat Akrom qizi	304

RAQAMLI ASRDA YOSHLARNING MEDIA SAVODXONLIGI: INGLIZ TILI OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA VLOG YURITISHNING O'RNI

Akramova Yulduz Farxadovna

NavDU Fakultetlararo chet tili o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0000-9989-4144>

To'rayeva Maftuna Ravshanovna

NavDU Fakultetlararo chet tili o'qituvchisi

<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0002-0152-5645>

Annotatsiya: Zamonaviy yoshlar hayotida ijtimoiy tarmoqlarning o'rni beqiyos bo'lib, ularning imkoniyatlari tobora ortib bormoqda. Shu bois, bu platformani ta'limda, xususan, xorijiy tillarni o'rganishda samarali vosita sifatida ishga solish muhim sanaladi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali til o'rganish jarayoni nafaqat oson, balki qiziqarli ham bo'lishi mumkin, chunki bu jarayon o'zaro hamkorlik, ijodkorlik va erkin fikr almashinuviga asoslanadi. Shunday vositalardan biri – vlog yuritish, ya'ni videoblog hisoblanadi. Vlog o'quvchilarga dars jarayonini jonli va mazmunli tarzda tashkil etishga yordam beradi. Bu media vositasi orqali ular o'z fikrlarini erkin bayon etadilar, ingliz tilida so'zlashishga bo'lgan ishonchni oshiradilar hamda nutq ko'nikmalarini mustahkamlashga intiladilar. Ushbu ilmiy maqola aynan vloglardan foydalanish orqali ingliz tilida so'zlashuv malakasini rivojlantirish jarayonini yoritadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aksariyat talabalar ijtimoiy tarmoqlar yordamida ingliz tilida muloqot qilish imkoniyatidan mamnun bo'lib, bu yo'nalishga katta qiziqish bilan yondashmoqdalar.

Kalit so'zlar: videoblog, vlog yuritish, gapirish ko'nikmasi, ijtimoiy tarmoqlar, media savodxonlik.

Abstract: The role of social media in the lives of modern youth is invaluable, and its opportunities continue to expand. Therefore, it is important to use these platforms as effective tools in education, particularly in foreign language learning. Learning a language through social media can be not only easy but also engaging, as this process is based on interaction, creativity, and the free exchange of ideas. One such tool is vlogging, or video blogging. Vlogging helps students make the learning process more dynamic and meaningful. Through this media tool, they learn to express their thoughts freely, increase their confidence in speaking English, and strengthen their communication skills. This scientific article explores the process of developing English-speaking skills through the use of vlogs. The findings indicate that the majority of students are satisfied with the opportunity to communicate in English through social media and show great interest in this approach.

Key words: video blog, vlogging, speaking skill, social media, media literacy.

Аннотация: Роль социальных сетей в жизни современной молодежи неопределима, и их возможности постоянно расширяются. Поэтому важно использовать эти платформы в образовательных целях, в частности, в процессе изучения иностранных языков. Обучение языку через социальные сети может быть не только легким, но и увлекательным, так как данный процесс основан на взаимодействии, творчестве и свободном обмене мнениями. Одним из таких инструментов является ведение видеоблога (влога). Влог помогает учащимся организовать учебный процесс более живо и содержательно. С помощью этого медиасредства они учатся свободно выражать свои мысли, повышают уверенность в устной речи на английском языке и стремятся укрепить свои коммуникативные навыки. Настоящая научная статья посвящена исследованию процесса развития навыков устной речи на английском языке посредством ведения влогов. Результаты исследования показывают, что большинство студентов довольны возможностью общения на английском языке с помощью социальных сетей и проявляют к этому направлению большой интерес.

Ключевые слова: видеоблог, ведение влога, навык говорения, социальные сети, медиаграмотность.



KIRISH

Zamonaviy texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi davrda insonlar o'rtasidagi muloqot va ma'lumot almashish jarayoni internet orqali butunlay yangi shakl kasb etdi. Ijtimoiy tarmoqlar - insoniyat tarixidagi kommunikatsiya taraqqiyotining eng so'nggi bosqichi bo'lib, ular vaqt va makon chegaralarini yo'qqa chiqardi, dunyo miqyosida darhol muloqot qilish va geografik to'siqlarsiz virtual jamoalar shakllanishiga imkon yaratdi.

Ijtimoiy media - bu foydalanuvchilarga postlar joylashtirish, izoh qoldirish, fikr almashish va o'zaro muloqot qilish orqali bir-biri bilan bog'lanish imkonini beruvchi turli onlayn platformalar majmuasidir. Bugungi kunda ularning turlari nihoyatda keng: ijtimoiy tarmoqlar, onlayn forumlar, foto va video almashish saytlaridan tortib, sharh yozish, blog va vloglar yuritishgacha.

2000-yillarning boshlarida, ayniqsa, 2002-yilda ilk ijtimoiy tarmoqlar paydo bo'lganidan beri, bu hodisa dunyo aholisining kundalik hayotiga shunchalik chuqur singib ketdiki, endi u hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylandi. Facebook, Instagram, Twitter kabi platformalar insonlarga do'stlar va yaqinlar bilan aloqada bo'lish, hayot yangiliklarini baham ko'rish va real vaqt rejimida muloqot qilish imkonini beradi. Ijtimoiy media endilikda nafaqat do'stlik va muloqot maydoni, balki hamkorlik, o'rganish va o'zini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochgan.

Masalan, #BookTok (TikTok'da 60,8 milliard ko'rish) - adabiyot ixlosmandlari uchun haqiqiy maskanga aylangan: foydalanuvchilar o'zlarining kitoblarga bo'lgan muhabbatini millionlab tomoshabinlar bilan baham ko'rib, ilgari nomi tanilmagan mualliflarning asarlarini mashhur qilib yubormoqda. Xuddi shuningdek, #FinTok moliyaviy savodxonlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Twitter tarmog'ida esa yoshlar siyosiy bahslarni kuzatib, jamiyatdagi dolzarb masalalardan xabardor bo'lishmoqda.

Ammo raqamli davrning eng diqqatga sazovor jihati shundaki, bugungi yoshlar faqatgina tomoshabin yoki kontent iste'molchisi emas, balki faol ijodkorlardir. Shu boisdan, media savodxonlik hozirgi yosh avlod uchun zarur ko'nikmaga aylangan. Bu ko'nikma ularni raqamli dunyoda ongli, mas'uliyatli va tanqidiy fikrlovchi ishtirokchi bo'lishga undaydi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, o'smirlarning 71 foizi ijtimoiy tarmoqlar ularga ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish imkonini berishini aytgan.

Bu o'zgarish, ayniqsa, til o'rganish sohasida yangi ufqlarni ochmoqda. Shulardan biri - vlogging, ya'ni videoblog yuritishdir. Vloglar orqali yoshlar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, global auditoriya bilan muloqotga kirishish va ingliz tilida so'zlashuv malakasini tabiiy, hayotiy kontekstda rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar. Ushbu maqola vlog yuritishning yoshlar media faoliyatidagi o'rni, uning media savodxonlik va ingliz tili nutq malakasini oshirishdagi ahamiyatini yoritadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Vlog yuritish bilan bog'liq ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ularning barchasi bu faoliyatning talabalar nutq ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlagan. Quyida ayrim e'tiborga molik misollar keltiriladi. Ulardan biri "Increasing Students' Talk Time through Vlogging" ("Vlog orqali talabalar nutq vaqtini oshirish") nomli tadqiqot Yaponiyaning Hyogo prefekturasida joylashgan Kwansei Gakuin universiteti olimi Jon Uotkins tomonidan o'tkazilgan. Tadqiqot ikki universitetda amalga oshirilgan bo'lib, natijalar vlog yuritish talabalarining ingliz tilida so'zlashish vaqtini sezilarli darajada oshirganini ko'rsatgan. Yana bir tadqiqot - "Top-Up Students' Second Language Talk Time through Vlogs" ("Vloglar orqali talabalar ikkinchi til nutq vaqtini ko'paytirish") - Hindistonning Chennai shahridagi SDNB Vaishnav ayollar kolleji ingliz tili kafedrasida dotsenti doktor Bina Anil rahbarligida o'tkazilgan. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, vlog yuritish talabalarga o'z yo'nalishlarida ishlash imkonini bergan, o'qish jarayonini esa yanada zavqli va ijodiy tusga keltirgan.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali ingliz tilini o'rganish

Ingliz tili bugungi kunda dunyo miqyosida eng keng o'rganilayotgan tillardan biridir. Ko'plab mamlakatlarda, jumladan, yurtimizda ham ingliz tili ta'lim dasturining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, raqamli muloqot rivojlantirish bilan uning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

Ijtimoiy tarmoqlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish jarayoni davom etmoqda va u nafaqat ingliz tilini, balki har qanday xorijiy tilni o'rganishda ham beqiyos ahamiyatga ega. Savol tug'iladi: ijtimoiy media ingliz tilini o'rganishga qanday yordam beradi?

Avvalo, Telegram kabi platformalarda izohlar, xabarlar, ovozli yoki video qo'ng'iroqlar orqali muloqot qilish inglizcha so'zlashuv ko'nikmalarini ancha yaxshilaydi. Muayyan mavzu bo'yicha onlayn muhokamalarda faol ishtirok etish orqali o'quvchilar fikr ifodalashni, gap tuzishni mashq qiladilar.

Shuningdek, Instagram yoki TikTok tarmoqlarida foydalanuvchilar uchun ingliz tilida qisqa videolar tayyorlashga undovchi "challenge"lar mavjud. Bunday jarayonlar nafaqat tildan foydalanish, balki ijodkorlikni ham rivojlantiradi.

YouTube kabi video platformalarda esa o'quvchilar grammatik darslar, haqiqiy suhbatlar yoki intervyularni tomosha qilib, tabiiy nutqni eshitish va tushunish malakasini oshiradilar. Til o'rganish ilovalari orqali esa ingliz tilida so'zlashuvchi insonlar bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot qilish imkoniyati yaratiladi.

Eng muhimi, talabalar o'zlarining shaxsiy kontentlarini yaratish orqali tilda so'zlashish va yozish ko'nikmalarini mustahkamlaydilar, shu bilan birga, tilni omma oldida qo'llashga bo'lgan ishonchni kuchaytiradilar.

Ingliz tili so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirishda vloglarning o'rni

So'zlashuv - ingliz tilini o'rganishda eng muhim va ayni paytda eng murakkab ko'nikmalardan biri sifatida tan olingan. Chet tili sifatida ingliz tilini (EFL) o'rgatish jarayonida unga alohida e'tibor berilsa-da, ko'plab o'quvchilar uchun bu ko'nikma hanz qiyinchilik tug'diradi.

Ayniqsa, boshlang'ich darajadagi o'rganuvchilar xato qilishdan qo'rqishadi va odamlarga qarab gapirishda o'ziga ishonchsizlikni his etadilar. O'zbekiston sharoitida ham o'qituvchilar ingliz tili darslarida shu kabi muammolarga duch kelishadi. Buning sabablari orasida dars soatlarining cheklanganligi, katta guruhdagi talabalarga bir paytning o'zida barcha til ko'nikmalarini o'rgatish zarurati kabi omillar mavjud.

Shu sababli, talabalar uchun sinfdan tashqari sharoitda mustaqil so'zlashuv imkoniyatlarini yaratish zarur. Biroq bu jarayonning asosiy to'siqlaridan biri - ingliz tilida muloqot qila oladigan hamfikrlar guruhining yo'qligidir.

Yaxshiyamki, innovatsion texnologiyalar bu ehtiyojni qondirish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Shu nuqtada vlog, ya'ni videoblog, talabalarga so'zlashuv mashqlarini qulay va ijodiy tarzda bajarish uchun samarali vosita sifatida maydonga chiqadi.

Vlog nima?

Vlogging (videoblog yuritish) - bugungi kunda barcha avlodlar orasida mashhur bo'lgan raqamli faoliyat turlaridan biridir. Bu so'z "video" va "blog" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lib, foydalanuvchilarga turli hayotiy mavzularda videolar tayyorlash, ularni tahrirlash va internetga joylash imkonini beradi.

Vlog egalari odatda o'z hobbilari, kundalik hayoti, foydali maslahatlar yoki qisqa nutqlar haqida so'z yuritadilar. Fiddan va Debbag (2018) ta'kidlaganidek, agar blog yozma shakldagi axborot manbai bo'lsa, vlog - bu har kim o'z istagiga ko'ra suratlar, tovushlar va matnlar qo'shib, ijodiy tarzda yaratishi mumkin bo'lgan videodir. Bunday vloglar odatda YouTube, Facebook va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi.

Vlog talabalarining so'zlashuv ko'nikmalarini qanday rivojlantiradi?

Talabalar o'z vloglarini yaratishda o'zlariga qulay bo'lgan platformani tanlashlari mumkin. Mini-vloglar tayyorlash jarayonida ular kundalik hayoti, o'qishi, ijtimoiy faoliyati yoki sevimli mashg'ulotlari haqida ingliz tilida so'zlaydilar. Bu jarayon ularning fikrni erkin, tabiiy va ishonch bilan ifoda etish malakasini mustahkamlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida qiyosiy-tahliliy, kuzatish va tavsiflash metodlaridan foydalandi. Avvalo, vlog yuritishning ingliz tili so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar o'rganilib, nazariy jihatdan tahlil qilindi. Mavzuga doir ilmiy maqolalar, tadqiqot natijalari hamda internet manbalari qiyosiy tahlil asosida o'rganildi.

Tadqiqotning amaliy qismida universitetning ingliz tili yo'nalishida tahsil olayotgan birinchi bosqich talabalari ishtirok etdi. Talabalarga uy vazifasi sifatida ingliz tilida "Process Paragraph" mavzusida videoblog tayyorlash topshirig'i berildi. Jarayon davomida talabalarining ingliz tilida fikrni ifodalash, nutq ravonligi, talaffuzi, lug'at boyligi hamda media vositalardan foydalanish ko'nikmalari kuzatildi va tahlil qilindi.

Shuningdek, vlog yaratish jarayonida talabalarining ingliz tilida muloqot qilishga bo'lgan qiziqishi, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijodiy yondashuvi o'rganildi. Olingan natijalar qiyosiy tahlil qilinib, vlog yuritishning ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Vlog orqali so'zlashuv ko'nikmasini bosqichma-bosqich rivojlantirish usuli:

- 1. Mavzu tanlash.** Talabalar o'zleri yaxshi biladigan yoki qiziqadigan mavzuni tanlaydilar. Bu ularda hayajon va qo'rquvni kamaytiradi hamda ishonchni oshiradi. Masalan: "First, my morning coffee and a quick review of yesterday's notes!" ("Avvalo, ertalabki qahvam va kechagi yozuvlarimni tezda ko'zdan kechirish!")



2. **Ssenariy yozish.** Videoni suratga olishdan oldin talabalar qisqa matn yoki reja tuzadilar. Bu fikrlarni tartibga solish va mantiqiy ketma-ketlikni ta'minlaydi. Namuna ssenariy: "Hi everyone! In today's vlog, I'll share my top 3 tips to stay productive during exam week!" ("Hammaga salom! Bugungi vlogimda imtihon haftasida unumdor bo'lishning eng yaxshi 3 maslahatini ulashaman!")
3. **So'zlashuvni mashq qilish.** Talabalar nutqni bir necha marta takrorlab, talaffuz va ravonlikni yaxshilaydilar. Ular o'zlarini yozib, tinglab, kamchiliklarni aniqlashlari mumkin. Yosh vlogerlar odatda samimiy, kundalik tildan foydalanadilar - bu esa ularning tabiiy nutqini rivojlantiradi.

Vlog yaratish jarayonida o'quvchilar tabiiy, jonli va ishonchli so'zlashuv uslubini shakllantiradilar. Masalan, ular quyidagi ifodalardan foydalanadilar:

1. "I feel like..." ("Menga shunday tuyulyapti...")
2. "Let me show you..." ("Sizga ko'rsataman...")
3. "This is so aesthetic!" ("Bu juda chiroyli / nafis!")
4. "Can't wait to share this with you guys." ("Buni sizlar bilan bo'lishishga sabrim yo'q!")
5. "Here's a quick tip..." ("Mana sizga kichik bir maslahat...")

Bunday iboralar ularning ingliz tilida yanada tabiiy, ishonchli va erkin so'zlashishlariga yordam beradi.

Vlogni yozib olish. Talabalar oddiy smartfon yordamida vloglarini yozib olishlari mumkin. Kamera qarshisida so'zlashish - omma oldida chiqish qo'rquvini yengishga va o'ziga ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu jarayon samarali kechishi uchun o'qituvchilar va sinfdoshlar vloglarni tomosha qilib, ijobiy fikr-mulohazalar qoldirishlari lozim. Bunday izohlar talabalarni yanada yaxshiroq natijaga erishishga, kommunikativ ko'nikmalarini muntazam rivojlantirishga undaydi.

Shu bilan birga, ayrim chekka hududlarda internet sifati pastligi muammosi kuzatiladi. Bunday holatda vloglarni oflayn shaklda namoyish etish orqali yechim topish mumkin. Yana bir muammo - ayrim talabalar video tayyorlashga ortiqcha vaqt sarflashadi. Shu bois, o'qituvchilar topshiriqlar uchun aniq muddatlar belgilab berishlari kerak, bu esa mas'uliyatni oshiradi va ishni samarali tashkil etadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham ko'plab talabalar ijodkorlik, so'zlashuv mahorati va o'ziga xos uslubi bilan tanilib, vloger-yulduzlarga aylanishmoqda. Ularning kontenti tomoshabinlarni o'ziga jalb etib, "obunachilar" auditoriyasini kengaytirmoqda. So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston universitetlarida muntazam vlog yurituvchi talabalar so'zlashuv ko'nikmalarini 20–30 foizga yaxshilashgan.

Vloggingda media savodxonlikning o'rni

Media savodxonlik - bu turli shakldagi mediakontentni tahlil qilish, baholash, undan foydalanish va ulashish qobiliyatidir. Yoshlar vlog bilan shug'ullanar ekan, tabiiy ravishda ushbu ko'nikmalarni rivojlantiradilar va amalda qo'llaydilar.

Vlog tayyorlash jarayonida talabalar raqamli vositalardan samarali foydalanishni o'rganadilar - kamera, videoni tahrirlash dasturlari, YouTube yoki Instagram kabi platformalardan foydalanish ularning raqamli malakasini mustahkamlaydi. Masalan, subtitrlar qo'shish, ovozni tozalash yoki hashtaglardan to'g'ri foydalanish - bu raqamli kontent qanday ishlashini tushunish belgilaridir.

Vlog joylashtirilgach, talabalar ko'pincha izohlar, layklar va xabarlar oladilar. Ular ularni diqqat bilan o'qib, odob bilan javob berishni o'rganadilar.

Masalan, agar kimdir: "Your sound is too low" ("Sizning ovozingiz past chiqyapti") deb yozsa, talaba keyingi vlogida bu xatoni tuzatadi.

Bundan tashqari, vlogni rejalashtirish jarayonida talabalar tanqidiy fikrlashni rivojlantiradilar - ular o'z videolarining mazmuni, auditoriyasi va shakli haqida o'ylaydilar. "Nimani aytmoqchiman?", "Qanday aytaman?", "Qaysi tasvir yoki musiqani ishlataman?" kabi savollar ularni ijodiy va maqsadli kontent yaratishga undaydi.

Natijada, vlog yuritish yoshlarni ongli, maqsadga yo'naltirilgan va raqamli madaniyatli kontent yaratuvchilarga aylantiradi. Bu esa zamonaviy media savodxonlikning eng muhim ko'nikmalaridan biridir.

Birinchi semestr davomida universitetning ingliz tili yo'nalishida tahsil olayotgan birinchi bosqich talabalariga uy vazifasi sifatida ingliz tilida "Process Paragraph" - ya'ni biror jarayonni bosqichma-bosqich bayon etuvchi matn tayyorlash topshirig'i berildi. Ushbu topshiriqni ijodiyroq shaklda bajarish uchun ularga o'z ishlarini Instagram Stories orqali taqdim etish tavsiya qilindi.

Talabalar mavzuni o'zlari erkin tanladilar, bu esa ijodkorlik va shaxsiy yondashuvning keng imkoniyatlarini ochdi. Ular orasida turli xil qiziqarli mavzular uchradi: an'anaviy o'zbek taomini tayyorlash jarayoni, muayyan soch turmagini qilish bosqichlari, o'qish stolini tartibga keltirish yo'llari va boshqalar.

Bu jarayon davomida talabalar ingliz tilida gapirishni mashq qildilar, xususan, first, then, next, finally kabi tartib bildiruvchi bog'lovchilardan to'g'ri foydalanish, video uchun vizual tasvirlar, fon musiqasi va dizaynni tanlash orqali kontentni jozibador qilish, eng muhimi, ingliz tilida ochiq platformada so'zlashishdagi tortinchoqlik va ishonchsizlikni yengish imkoniga ega bo'ldilar.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, vlog yaratish jarayonida talabalar nafaqat til ko'nikmalarini, balki ijodiy fikrlash, raqamli savodxonlik va o'z fikrini omma oldida ifoda etish malakalarini ham rivojlantirishgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlil va kuzatuvlarga asoslanib aytish mumkinki, vlog yuritish ingliz tili so'zlashuv ko'nikmasini rivojlantirishda samarali, qulay va qiziqarli vosita sifatida o'zini oqlagan. Bu usul o'quvchilarga raqamli savodxonlik, ijodiy ifoda va ko'p tilli muhitda tengdoshlar bilan o'zaro o'rganish imkonini yaratadi.

O'qituvchilar esa texnologiya taraqqiyotidan orqada qolmasliklari, balki undan samarali foydalanib, ta'lim jarayonini zamonaviy vositalar bilan boyitishlari lozim. Agar o'qituvchi ana shunday ijodiy, ochiq va interaktiv muhitni yarata olsa, shubhasiz, ta'lim natijalari kutilganidan ham yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Awal Kurnia Putra Nasution. Social Media Used In Language Learning: Benefits And Challenges. June 2022, Journal of Linguistics Literature and Language Teaching (JLLLT) 1(2):59-68
2. Berlinda Mandasari. Vlog: a tool to improve students' English speaking ability at university level. The 3rd IICLLTLC 2019 3. Dariya Tulenova. English Language Learning Through Social Media Platforms. Final International University February 2024 Girne, North Cyprus
3. Eka Wulandari. Improving Students' Speaking Ability through Vlogging. UNNES International Conference on English Language Teaching, Literature, and Translation (ELTLT 2018)
4. Elnura Xolmamatova. The role of social networks in learning English. (2025), Modern Science and Research, 4(4), 1022–1027.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.